



UDK: 81'42:81'27:004.738.5:001.8

Dildora PULATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: pulatovadildora0@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0008-3637-8095>

F.f.d, prof.v.b. M.Abdurahmanova taqrizi asosida

THE CONCEPT OF DIGITAL DISCOURSE AND ITS LINGUISTIC-PRAGMATIC FEATURES

Annotation

The article investigates the concepts of discourse and digital discourse, as well as their semantic and content-related dimensions. A comparative analysis of linguists' perspectives on the notions of discourse and text is provided. Particular attention is devoted to the linguistic-pragmatic features of digital discourse, including economy and brevity, multimodality, interactivity, subjectivity and emotionality, as well as anonymity.

Keywords: modern communication, digital communication, discourse, text, digital discourse, pragmatics, linguo-pragmatics, speech, speech acts, online environment, digital platforms.

ПОНЯТИЕ ЦИФРОВОГО ДИСКУРСА И ЕГО ЛИНГВО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В статье исследуются понятия дискурса и цифрового дискурса, а также их семантическое и содержательное наполнение. Выполнен сравнительный анализ взглядов лингвистов на понятия дискурса и текста. Особое внимание уделено лингвопрагматическим характеристикам цифрового дискурса, таким как экономичность и краткость, мультимодальность, интерактивность, субъективность и эмоциональность, а также анонимность.

Ключевые слова: современная коммуникация, цифровое общение, дискурс, текст, цифровой дискурс, прагматика, лингвопрагматика, речь, речевые акты, интернет-среда, цифровые платформы.

RAQAMLI DISKURS TUSHUNCHASI VA UNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada diskurs, raqamli diskurs tushunchasi, uning ma'no-mazmuni borasidagi ilmiy qarashlar o'rganildi. Diskurs va matn tushunchalari borasida tilshunos olimlarning fikrlari qiyoslandi. Raqamli diskursning tejamkorlik va qisqalik, multimodallik, interaktivlik, subyektivlik va emotsionallik hamda anonimlik kabi lingvopragmatik xususiyatlari yoritildi.

Kalit so'zlar: zamonaviy kommunikatsiya, raqamli muloqot, diskurs, matn, raqamli diskurs, pragmatika, lingvopragmatika, nutq, nutq aktlari, internet muhiti, raqamli platformalar.

Kirish. Jamiyatda muhim muloqot vositasi bo'lgan til ijtimoiy hodisa sifatida yuzaga kelgan. Tilning rivojlanishi va taraqqiyoti muayyan omillar bilan bog'liq. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tufayli tilning qo'llanilishi, xususan, muloqot shakllarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, internet muhitida yuzaga kelgan yangi kommunikatsiya shakllari tilning qo'llanish doirasini kengaytirdi. Raqamli kommunikatsiya yangi turdagi diskursni – raqamli diskursni shakllantirdi. Mazkur hodisa tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, xususan, Diskurs tahlili, Pragmatika, Lingvopragmatika doirasida o'rganiladigan masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pragmatika muammosi dastlab XIX asr oxiri XX asr boshlarida Ch.Pirs, U.U.Djems, D.Dyun, Ch.Morris asarlarida o'rtaga tashlandi [1] va jahon tilshunosligida keng miqyosda o'rganildi. Raqamli diskursga to'xtalishdan oldin diskurs tushunchasi, mazmun-mohiyati haqida fikr yuritmoqchimiz. "Diskurs" termini tilshunoslikda o'tgan asrning 50-yillarida birinchi marta tilga olina boshlagan, dastlab ushbu ibora amerikalik tilshunos Z.Xarrisning 1952-yilda nashr etilgan "Diskurs tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan [2].

G'arb tilshunosligida keng qo'llanilayotgan "diskurs" (ing. discourse; fran. discours) tushunchasi tilshunos olimlar tomonidan turlicha talqin etilganligini kuzatish mumkin.

Diskurs termini jahon tilshunosligida so'nggi o'n yillikda juda keng qo'llanilib, mazkur termin dastlab bog'lanma matn tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik suhbat, dialog tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi [3]. Diskurs tushunchasi lotincha "discursus" – "mulohaza yuritish", "oldinga va orqaga yugurish", "harakat", "aylanish", "suhbat" yoki fransuzcha "Discours" – "nutq" degan ma'nolarga borib taqaladi [4].

Ayrim tadqiqotlarda "diskurs" termini "matn" termini bilan sinonimik tarzda qo'llanishi, "kontekst" termini esa so'z birikmasi va gap sifatida ham tushunilishi mumkin. [5]. Diskurs haqida tilshunos olim S.Israilova va uning hammuallifi ham o'z qarashini bayon qilgan: "Diskurs nutq vaziyatiga qarab hosil bo'ladigan nutqiy jarayondir. Matn esa, avvaldan kommunikativ aloqa uchun tayyorlangan lisoniy material bo'ladi. Diskurs nutqiy munosabatga qarab o'zgarishi mumkin, matn esa o'zgarimas lisoniy birlikka aylanadi" [6].

V.V.Krasnix qarashiga ko'ra diskurs ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillarga asoslangan verballashgan nutqiy tafakkur faoliyatidir. Diskurs – bu "muloqot jarayonida yuzaga kelgan matnlar to'plami" [7].

Kuzatishlarimizga asoslanib aytish mumkinki, diskurs – matndan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, u lisoniy faoliyat jarayoni sanaladi, ushbu jarayon natijasida matn paydo bo'ladi. Lingvistik tarkib jihatdan matn va diskurs farqlanishi mumkin,

biroq semantik jihatdan bir xil. Og'zaki nutqda matnning grammatik birliklari yozma nutq shakli bilan aynan bir xil bo'lmaydi. Diskurs vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin.

Tilshunos olim Arutyunova ta'rifiga ko'ra: "Diskurs – nolisoniy omillar (pragmatik, ijtimoiy-madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtayi nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq"dir [8]. T.van Deyk G'arbiy Yevropa tilshunosligida "matn" va "diskurs" tushunchalarini aniq farqlashga harakat qilgan ilk olimlardan biri ekanligi qayd etiladi. U "Diskurs – bu to'g'ri talaffuz qilingan matn, "matn" esa talaffuzning abstrakt grammatik tuzilishi. Diskurs – bu nutqqa tegishli tushuncha, "matn" esa til tizimi yoki rasmiy lingvistik bilimlar, lingvistik kompetentsiya bilan bog'liq tushunchadir", deydi [9].

O'zbek tilshunosligida Sh.Safarov "Pragmalingvistika"ga bag'ishlangan monografiyasida nutqiy muloqot tizimi birliklari, diskursning tuzilishi va uning tahlili borasida o'z qarashlarini bayon qiladi. Unda diskurs va matn munosabati haqidagi tilshunos olimlarning ilmiy mushohadalari, fikrlar qarama-qarshiligini kuzatish mumkin. Ba'zilar ushbu ikki tushunchani bir qatorga qo'yish va tenglashtirish istagida bo'lsa, ba'zilar bir-birini inkor etadigan hodisa sifatida qaraydi [10]. Matn va diskursning keskin farqlanishiga sabab matnning turg'un, tayyor mahsulot diskursni esa kechayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida talqin etilishidir.

Diskurs tahlili tilshunoslikda uch asosiy yondashuv asosida rivojlangan:

Pragmatik yondashuv – D.Shiffrin, J.Ostin, J.Searle ishlarida ifodalangan bo'lib, diskurs nutq aktlari va ularning kommunikativ maqsadlarini o'rganadi.

Kognitiv yondashuv – T.van Deyk va Ch.Fillmor nazariyalarida diskurs inson ongida shakllanuvchi bilim, tajriba va konseptual model sifatida talqin qilinadi.

Ijtimoiy-kritik yondashuv – N.Fairclough va R.Wodak tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bu yondashuv diskursni hokimiyat, mafkura va ijtimoiy tengsizliklarni ifodalovchi vosita sifatida tahlil qiladi [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada diskurs va raqamli diskurs tushunchasi, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish, raqamli diskursning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash vazifasi qo'yildi. Ushbu vazifani bajarishda turli manbalarga tayanildi. Diskurs va matn tushunchalari borasida tilshunoslarning ilmiy qarashlari o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Kuzatishlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarida diskurs va matn tushunchalari haqida qarashlar talqin etilgan. Ularning hech birida raqamli diskurs tilga olinmagan. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida tilning o'zgarishi va rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratildi, yangi kommunikatsiya vositalari paydo bo'ldi. Shu bilan birga tilshunoslik sohasida raqamli diskurs tushunchasi shakllandi.

Jamiyatdagi ushbu o'zgarishlar tilni yanada boyitishga xizmat qilmoqda. Xususan sun'iy intellekt va avtomatik tarjima texnologiyalari tilning rivojlanishida inqilobiy rol o'ynamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda yangi til shakllari, slenglar, jargonlarning paydo bo'lishi lingvistik madaniyatni boyitishi bilan bir qatorda yosh avlod til madaniyatiga ta'sir etmoqda.

Internetning keng tarqalishi, mobil aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yangi kommunikatsiya formatlarini kiritdi. Bu esa o'z navbatida tilni qisqartirish, slenglar paydo bo'lishi, yangi grammatik shakllarning hosil bo'lishiga olib kelmoqda [10]. Raqamli kommunikatsiyada emojilar, stikerlar kabi vizual

vositalardan foydalanish tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi.

Raqamli diskurs odatda internet va turli raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan muloqot jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bunda matn bilan bir qatorda audio, video hamda vizual belgilar ham faol ishtirok etadi. Bugungi kunda O'zbek tilshunosligida raqamli diskursni lingvopragmatik jihatdan o'rganish, lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bu diskurs an'anaviy nutq shakllaridan quyidagi belgilar bilan farqlanadi: interaktivlik, tezkorlik, multimodallik. Raqamli diskursni lingvopragmatik jihatdan o'rganish nutq birliklarining kommunikativ vazifasi, maqsad va ta'sir kuchini aniqlashga qaratilgan. Mazkur masalani yoritishda John L.Austin [12] va John Searle [13] tomonidan ilgari surilgan nutq aktlari haqidagi qarashlar muhim nazariy ahamiyatga ega.

Raqamli muhitda nutq aktlari ko'pincha to'liq va aniq shaklda emas, balki qisqartirilgan, soddalashtirilgan hamda kontekstga bog'liq, ba'zan yashirin holda namoyon bo'ladi. Bunda muloqot ishtirokchilari so'zlarning bevosita ma'nosidan ko'ra vaziyat, oldingi yozishmalar ijtimoiy kontekstga tayanib mazmunni tushunadilar. Masalan, qisqa yozilgan xabarlar, emojilar yoki kinoyali fikrlar ko'pincha to'liq izohlanmaydi, lekin suhbatdosh tomonidan oson anglashiladi. Bu raqamli muhitning o'ziga xos jihatlaridan biri. Kuzatishlar asosida shuni aytish mumkinki, raqamli diskurs qator o'ziga xos lingvopragmatik xususiyatlarga ega:

Tejamkorlik va qisqalik raqamli muloqotning eng muhim xususiyatlaridan biri. Bunda nutq ishtirokchilari til birliklarini kam qo'llagan holda ko'p ma'no ifodalashga, ya'ni maksimal axborot yetkazishga intiladi. Avvalo raqamli muloqotda qisqalik tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Muloqot jarayonida vaqtni tejash maqsadida qisqartmalar, abbreviaturalardan keng foydalaniladi, ayrim hollarda gapning ba'zi qismlari tushirib qoldiriladi. Masalan, Sen ishdan keldingmi? – Keldingmi? Men hozir boraman. – hozir.

Emoji va belgilar orqali butun bir fikr ma'no ifodalani: □ – "Ma'quillayman", "Roziman", "Hammasi yaxshi", "Zo'r"

Inglizcha qisqa shakllarning kirib kelishi: "ok" va b. Bunda suhbatdoshlar ortiqcha izohlansiz bir-birini tushunadi, ma'no ko'pincha yashirin tarzda ifodalaniadi.

Multimodallik – bu raqamli diskursning ajralmas belgilaridan biri hisoblanadi. Bunda matn bilan birga emoji, GIF, memlar, stikerlar, rasm va video kabi vizual vositalar ham ma'no ifodalashda ishtirok etadi. Vizual vositalarga ko'z orqali ko'rib idrok etish mumkin bo'lgan omillar kiradi. Ular nutqning emotsionalligini oshiradi va ma'no aniqligini ta'minlaydi. Masalan, matn: "Mayli tushundim", multimodal shakl: "ok □", "✓ □". Bunda emoji va like tugmasi matndagi tasdiq ma'nosini kuchaytiradi yoki o'rnini bosadi. Demak, multimodallik nutqning yanada boy va ta'sirchan ifodalanishini ta'minlaydi.

Interaktivlik – bu raqamli diskursda foydalanuvchilar o'rtasidagi tezkor o'zaro ta'sir va javob almashinuvini bildiradi, muloqot ishtirokchisining kayfiyatiga ta'sir qilish imkonini oshiradi. Raqamli muloqotda javob tezligi, reaksiya shakli (like, comment va boshqalar) ham kommunikativ ma'no ifodalaydi. Nutq aktlari qisqa va implitsit bo'lsa ham interaktivlik orqali ularning ma'nosi va kommunikativ niyati tez va aniq yetkaziladi. Masalan, WhatsApp, Telegram, Live-chat, videokonferensiya yoki Messengerda foydalanuvchilar yozilgan xabarga darhol, qisqa, lekin ma'noli javob beradi. Masalan: □ – rozilik, tasdiq, mamnunlik;

♥□ – qo'llab-quvvatlash, iliqlik, yaxshi ko'rish; □ – kulish, kulgili holatni bildiradi.

Subyektivlik va ekspressivlik. Subyektivlik – bu foydalanuvchining shaxsiy fikrlari, his-tuyg'ularini ifodalash xususiyatidir. Bunda foydalanuvchilar o'z xabarlarida shaxsiy baho, his-tuyg'u va qarashlarini kiritadi: “Men bu yangilikdan juda xursandman □”, “Shu gaplarni eshitib hayron qoldim □”.

Ekspressivlik esa nutq orqali emotsiyalar, kayfiyat va hissiyotlarni ifodalash qobiliyatidir. Raqamli diskurs shaxsiy fikr, kayfiyat va emotsiyalarni ochiq va kuchli ifodalaydi. Bu xususiyat multimodal vositalar orqali yorqinroq ko'rinadi. Foydalanuvchilar o'z hissiyotlarini ifodalashda turli emoji va smayllar: ♥□, □, □□, GIF va memlar: muayyan hissiyot yoki kayfiyatni vizual tarzda ifodalash, shuningdek, stilistik vositalar: katta harflar, takroriy belgilardan keng foydalanadi.

Anonimlik. Raqamli platformalarda foydalanuvchilar ko'pincha o'z shaxsini oshkor qilishni xohlashmaydi. Chunki tanqidiy, kulgili yoki shaxsiy fikrlarini erkin ifodalashda bu juda qo'l keladi. Ushbu holat nutq strategiyalariga ta'sir ko'rsatib, ba'zan erkinlikni oshirsa, ayrim vaziyatlarda kommunikativ me'yorlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotchi Ismoilova ta'lim diskursida kommunikativ normalarning transformatsiyasi haqida to'xtalib: “Foydali tomoni shundaki, rasmiy va norasmiy uslublarni solishtirish, til o'zgarishlarining sabablarini muhokama qilish va talabalarda hurmat, to'g'rilik va ongli fikrlashga asoslangan internet

muloqoti madaniyatini shakllantirish mumkin. Talaba til normasining ahamiyatini tushunishi, tilga ilmiy va kundalik yondashuvni farqlay olishi va vaziyatga qarab muloqot uslubini ongli ravishda tanlay olishi lozim – bu o'quv yozishmasi, ish xati yoki norasmiy suhbat bo'lsin”, degan fikrlarni aytib o'tgan [14].

Xulosa va takliflar. Demak, bugungi kunda raqamli diskurs zamonaviy kommunikatsiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida tilning yangi funksional imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi tildan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tilni boyitish bilan bir qatorda tilimizga ingliz tilidan olingan so'zlar va sleng ifodalarning kengayishiga xizmat qiladi, ular tezda kundalik muloqotga kirib boradi. Bunda orfografiya talablarining pasayishi kuzatiladi. Bu yozuv va punktuatsiya normalariga nisbatan erkin munosabat namoyon bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan bu holat foydalanuvchilar tomonidan “tabiiy norma” sifatida qabul qilina boshlaydi. Shunday ekan, raqamli kommunikatsiyani lingvopragmatik jihatdan o'rganish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega va bu nutq jarayonining samaradorligini hamda ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XV1. - М., 1985. – Б.471.
2. Israilova S.T; Jumanova D. Diskurs va uning ilmiy talqini. O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2024-2:67-74.
3. Мамажонов, М. Антропонимлар дискурс релеванти сифатида. –Фаргона 2020. –Б.26.
4. Saidova M., Nadirxanova N. Miasto Przyszłości Kielce 2023. –B. 136.
5. Pulatova D. O'zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragmatik tadqiqi. Monografiya. Toshkent, 2024. 136-b.
6. Charaudeau P. Le discours médiatique: la construction du miroir social.– Paris: Vuibert, 2006. –P.113.
7. Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия, -М., 1990. -С.136-137.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. –Toshkent 2008, 320-b.
9. Umaraliyeva B. Zamonaviy ilm-fan va ta'lim: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2025-yil. –B.21-22.
10. Tajimbetova G. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. 2025, Issue – 3 № 11. –B.54.
11. Austin, J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.
12. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
13. Ismoilova R. The Lingua Spectrum Volume 11, November 2025. –P. 208.
14. Bahodirova B. G. On terminological derivation and the evolutionary development of sectoral vocabulary: The lexicon of embroidery, skullcap-making, and gold embroidery //Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy. – 2025. – T. 1. – №. 3. – С. 553-559.
15. Bahodirova, G. (2024). Zamonaviy terminologiyada ilmiy termin va kasb-hunar termini tushunchalari talqini muammolari. News of the NUUZ, 1(1.10), 228-231.
16. Pulatova , D. D. (2025). The use of defeated expectation as a means of aesthetic and pragmatic impact in uzbek fiction. International sciences, education and new learning technologies , 2(10), 200–202. Retrieved from <https://internationalsciences.org/index.php/is/article/view/100>